

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

TALABALARNING IJTIMOYIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA LIDERLIK KOMPETENSIYALARINING O'RNI

Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi, o'qituvchi.

e-mail: shamsiddinovnematon69@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0001-5298-8714>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish jarayonida liderlik kompetensiyalarining o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Ijtimoiy faollik tushunchasi, uning tarkibiy elementlari hamda liderlik kompetensiyalarining ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, kompetensiyaviy ta'lim modeli hamda talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirish mexanizmlari o'rganilgan. Shuningdek, liderlik ko'nikmalarining talabalarning kommunikativ, tashkiliy va qaror qabul qilish qobiliyatlariga ta'siri tahlil etilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, liderlik kompetensiyalari rivojlangan talabalar jamiyat hayotida faolroq ishtirok etadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, liderlik, kompetensiya, talaba, ta'lim, motivatsiya, fuqarolik pozitsiyasi, jamoa, boshqaruv, kommunikatsiya.

РОЛЬ ЛИДЕРСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ В ПОВЫШЕНИИ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ

Ирисбоева Хотирахон Утбасаровна

Ташкентский военно-академический лицей «Темурбеклар мактаби» Национальной гвардии Республики Узбекистан, преподаватель.

Аннотация.

В статье с научной точки зрения анализируется роль лидерских компетенций в процессе повышения социальной активности студентов. Раскрываются понятие социальной активности, её структурные элементы, а также значение лидерских компетенций в образовательном процессе. В исследовании рассматриваются современные педагогические подходы, компетентностная модель образования и механизмы формирования социальной активности студентов. Кроме того, анализируется влияние лидерских навыков на коммуникативные и организационные способности студентов, а также на их способность принимать решения. Результаты показывают, что студенты с развитыми лидерскими компетенциями более активно участвуют в общественной жизни.

Ключевые слова: социальная активность, лидерство, компетенция, студент, образование, мотивация, гражданская позиция, коллектив, управление, коммуникация.

ROLE OF LEADERSHIP COMPETENCIES IN INCREASING SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS

Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna

Tashkent "Temurbeklar Maktabi" Military-Academic Lyceum of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, Teacher.

Abstract.

This article provides a scientific analysis of the role of leadership competencies in enhancing students' social activity. It examines the concept of social activity, its structural elements, and the importance of leadership competencies in the educational process. The study explores contemporary pedagogical approaches, the competency-based education model, and mechanisms for developing students' social activity. It also analyzes the influence of leadership skills on students' communicative and organizational abilities, as well as their decision-making skills. The findings indicate that students with well-developed leadership competencies participate more actively in social and community life.

Keywords: social activity, leadership, competence, student, education, motivation, civic engagement, team, management, communication.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan sharoitda jamiyatning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan yosh avlodning faolligi, tashabbuskorligi va liderlik salohiyatiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalar nafaqat bilim oluvchi subyekt sifatida, balki jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etuvchi kuch sifatida ham shakllanishi zarur. Shu

nuqtayi nazardan, talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish va ularda liderlik kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi.

Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat hayotidagi ongli ishtiroki, ijtimoiy jarayonlarga nisbatan faol munosabati va jamoat manfaatlari yo'lida tashabbus ko'rsatish darajasi bilan belgilanadi. Talabalar ijtimoiy faolligi esa ularning o'quv jarayonidan tashqari turli ijtimoiy, madaniy, volontyorlik va tashkiliy faoliyatlarda ishtiroki orqali namoyon bo'ladi. Bunday faollik shaxsning nafaqat kasbiy, balki fuqarolik pozitsiyasini ham shakllantiradi.

Liderlik kompetensiyalari esa talabaning jamoani boshqarish, qaror qabul qilish, kommunikativ aloqalarni yo'lga qo'yish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri yo'l tanlash hamda boshqalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatlari majmuasini o'z ichiga oladi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda liderlik faqat boshqaruv faoliyati emas, balki shaxsning ijtimoiy mas'uliyati va faolligini ifodalovchi muhim kompetensiya sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari ham aynan yoshlarni har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, tashabbuskor va liderlik salohiyatiga ega shaxslar sifatida tarbiyalashga qaratilgan. "Yangi O'zbekiston" konsepsiyasi doirasida yoshlarning intellektual salohiyati, ijtimoiy faolligi va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1].

Shu bilan birga, bugungi kunda ayrim talabalarda ijtimoiy faollikning yetarli darajada shakllanmagani, jamoaviy faoliyatga befarqlik, tashabbuskorlikning pastligi kabi holatlar kuzatilmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan maxsus pedagogik yondashuvlarni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Chunki liderlik ko'nikmalariga ega bo'lgan talabalar ijtimoiy hayotda faolroq ishtirok etadi, muammolarni hal etishda tashabbus ko'rsatadi va jamiyat rivojiga munosib hissa qo'shadi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi yana shunda namoyon bo'ladiki, zamonaviy mehnat bozori faqat bilimli mutaxassislarini emas, balki jamoada ishlay oladigan, liderlik qobiliyatiga ega, innovatsion fikrlaydigan shaxslarni talab qilmoqda. Shu sababli ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish, xususan, liderlik kompetensiyalarini shakllantirish muhim pedagogik vazifaga aylanmoqda.

Tadqiqotning maqsadi — talabalarining ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik kompetensiyalarining o'rnini ilmiy jihatdan asoslash, ularning o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- ijtimoiy faollik va liderlik kompetensiyalari tushunchalarini nazariy tahlil qilish;
- talabalarda liderlik ko'nikmalarining shakllanish omillarini aniqlash;
- ijtimoiy faollik va liderlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish;
- ta'lim jarayonida liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning natijalaridan oliy ta'lim muassasalarida talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish, liderlik ko'nikmalarini rivojlantirish hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Umuman olganda, talabalarining ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik kompetensiyalarining o'rni muhim ilmiy-pedagogik ahamiyatga ega bo'lib, ushbu jarayonni chuqur o'rganish zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Talabalarining ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik kompetensiyalarining o'rni masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya va ta'lim menejmenti fanlarida keng o'rganilayotgan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu muammo bo'yicha ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy faollik, liderlik va kompetensiyaviy yondashuv bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan kompleks jarayon sifatida talqin qilinadi.

Avvalo, ijtimoiy faollik tushunchasi ilmiy adabiyotlarda shaxsning jamiyat hayotidagi faol ishtiroki, ijtimoiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatishi va jamoat manfaatlari uchun tashabbus ko'rsatishi sifatida izohlanadi. O'zbekistonlik tadqiqotchi N. Karimova ijtimoiy faollikni shaxsning fuqarolik pozitsiyasi, qadriyatlari va motivatsion tizimi bilan bog'liq dinamik jarayon sifatida talqin qiladi [2]. Muallifning fikricha, ijtimoiy faollik faqat ishtirok etish emas, balki jamiyat muammolariga nisbatan ongli munosabat bildirishni ham o'z ichiga oladi.

Liderlik kompetensiyalari masalasi esa pedagogik va psixologik adabiyotlarda shaxsning boshqaruv, kommunikativ va tashkiliy qobiliyatlari majmui sifatida o'rganiladi. N. Nuraliyeva liderlik kompetensiyasini talabaning jamoani boshqarish, qaror qabul qilish va ijtimoiy vaziyatlarga tez moslashish qobiliyati sifatida izohlaydi [8]. Ushbu yondashuvga ko'ra, liderlik kompetensiyalari tug'ma emas, balki ta'lim va tarbiya jarayonida shakllanadigan ijtimoiy-pedagogik fenomen hisoblanadi.

Kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi zamonaviy ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ta'lim natijasi faqat bilim bilan emas, balki amaliy ko'nikma va kompetensiyalar bilan ham o'lchanadi. Xususan, talabalarda ijtimoiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish ularning jamiyatdagi faolligini oshirishga xizmat qiladi [4]. Tadqiqotchilar fikricha, kompetensiyaviy ta'lim modeli talabaning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Xorijiy adabiyotlarda liderlik masalasi ko'proq psixologik va boshqaruv yondashuvlari asosida o'rganiladi. Jumladan, J. Maxwell liderlikni "ta'sir ko'rsatish san'ati" sifatida talqin qiladi va har bir inson ma'lum darajada lider bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi [5]. Uning nazariyasiga ko'ra, liderlikning asosiy komponentlari ishonch, mas'uliyat, qat'iyat va kommunikatsiya qobiliyatidir.

D. Goleman esa liderlikni emotsional intellekt bilan bevosita bog'laydi. Uning fikricha, samarali lider o'z his-tuyg'ularini boshqara olishi, boshqalarning emotsional holatini tushunishi va jamoani ruhlantira olishi kerak [6]. Ushbu

yondashuv talabalarining ijtimoiy faolligini oshirishda emotsional va kommunikativ kompetensiyalarning muhimligini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda qabul qilingan strategik hujjatlarda ham ushbu muammoga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "Yangi O'zbekiston strategiyasi"da yoshlarning intellektual salohiyati, liderlik qobiliyatlari va ijtimoiy faolligini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan [1]. Bu hujjatda yoshlarni tashabbuskor, vatanparvar va jamiyatga foydali shaxs sifatida tarbiyalash zarurligi alohida ta'kidlanadi.

Pedagogik adabiyotlarda ijtimoiy faollikni oshirishda ta'lim muhiti va o'qituvchining roli ham muhim omil sifatida ko'rsatiladi. Tadqiqotchilar fikricha, interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish va jamoaviy faoliyat talabalarda liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, tyutorlik tizimi talabaning individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi muhim mexanizm sifatida e'tirof etiladi [4].

Shuningdek, so'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda talabalarining ijtimoiy faolligi va liderlik kompetensiyalari o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligi aniqlangan. Ijtimoiy faol talabalar odatda yuqori darajadagi kommunikativ ko'nikmalarga, tashabbuskorlikka va muammolarni hal etish qobiliyatiga ega bo'lishi ta'kidlanadi [3].

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarining ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik kompetensiyalari hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu kompetensiyalar ta'lim jarayonida maxsus pedagogik sharoitlar yaratish, interfaol metodlarni qo'llash va amaliy faoliyatni kengaytirish orqali samarali rivojlantiriladi.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlar tahlili ushbu yo'nalishda hali to'liq o'rganilmagan jihatlar mavjudligini ham ko'rsatadi. Xususan, liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishning milliy modelini ishlab chiqish, talabalarining ijtimoiy faolligini baholash mezonlarini takomillashtirish va raqamli ta'lim muhitining ta'sirini chuqur o'rganish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy tahlil va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil metodi asosida talabalarining ijtimoiy faolligi, liderlik kompetensiyasi, liderlik sifatlarining mazmuni hamda ularning ta'lim jarayonidagi ahamiyatiga oid ilmiy-pedagogik qarashlar o'rganildi va umumlashtirildi. Ushbu metod talabalarining ijtimoiy faolligini rivojlantirishda liderlik kompetensiyalarining o'rni va pedagogik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslashga xizmat qildi. Qiyosiy tahlil metodi orqali talabalarining ijtimoiy faolligi va liderlik kompetensiyalariga oid turli ilmiy yondashuvlar o'zaro taqqoslandi. Natijada liderlik kompetensiyalarining talabalarda tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik, jamoada ishlash, samarali muloqot qilish, mustaqil qaror qabul qilish hamda ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etish kabi sifatlarni rivojlantirishdagi ahamiyati aniqlashtirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Nazariy va qiyosiy tahlil natijalari talabalarining ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik kompetensiyalari muhim pedagogik omillardan biri ekanligini ko'rsatdi. Talabaning ijtimoiy faol bo'lishi faqatgina turli tadbirlar, jamoat ishlari yoki talabalar tashkilotlarida qatnashishi bilan belgilanmaydi. Ijtimoiy faollik shaxsning tashabbus ko'rsatishi, jamoa manfaatlarini anglay olishi, muammolarga befarq bo'lmasligi, o'z fikrini asosli ifodalashi, boshqalar bilan hamkorlik qilishi va muayyan ijtimoiy vaziyatlarda mas'uliyatli qaror qabul qila olishi bilan ham namoyon bo'ladi. Mazkur sifatlarning rivojlanishi esa liderlik kompetensiyalarining shakllanganlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Tahlil jarayonida liderlik kompetensiyasi talabaning faqat boshqalarga rahbarlik qilish qobiliyati emas, balki o'z faoliyatini mustaqil tashkil eta olish, maqsad qo'yish, qaror qabul qilish, jamoa bilan samarali ishlash va umumiy natija uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga tayyorlikni ifodalovchi integrativ sifat sifatida namoyon bo'lishi aniqlandi. Shu jihatdan liderlik kompetensiyasi talabaning shaxsiy rivojlanishi bilan bir qatorda uning ijtimoiy muhitdagi faol pozitsiyasini ham belgilaydi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, an'anaviy ta'lim jarayonida talabadan ko'proq berilgan topshiriqlarni bajarish va o'zlashtirilgan bilimlarni namoyish etish talab qilinsa, zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv talabani ta'lim jarayonining faol subyekti sifatida qarashni taqozo etadi. Bunday sharoitda talabaning tashabbuskorligi, muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topishi, guruh faoliyatini muvofiqlashtirishi va o'z qarashlarini asoslab bera olishi alohida ahamiyat kasb etadi. Demak, liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish ijtimoiy faollikni shakllantirishning mazmuniy tarkibiy qismi sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot doirasidagi tahlillar asosida talabalarining ijtimoiy faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi bir qator liderlik kompetensiyalari ajratib ko'rsatildi. Jumladan, **"tashabbuskorlik"** talabaning yangi g'oyalarni ilgari surishi va mavjud muammolar yechimiga faol kirishishiga xizmat qiladi. **"Kommunikativ kompetensiya"** o'z fikrini aniq ifodalash, boshqalarning nuqtai nazarini tinglash va konstruktiv muloqot olib borish imkonini beradi. **"Jamoada ishlash kompetensiyasi"** talabaga umumiy maqsad yo'lida sheriklik munosabatlarini shakllantirish va vazifalarni oqilona taqsimlash imkonini yaratadi. **"Mas'uliyatlilik"** esa qabul qilingan qarorlarning natijalarini anglash va belgilangan vazifalarni izchil bajarishda namoyon bo'ladi. **"Qaror qabul qilish kompetensiyasi"** turli muqobil variantlarni tahlil qilish hamda maqbul yechimni tanlashga yordam beradi.

Shuningdek, liderlik kompetensiyalarining rivojlanishi talabaning o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy tashabbuslarini ham kuchaytirishi aniqlashtirildi. O'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay oladigan, fikrini himoya qila oladigan va jamoa oldida mas'uliyatni o'z zimmasiga olishdan cho'chimaydigan talaba ijtimoiy jarayonlarda faolroq qatnashadi. Bunda liderlik boshqalardan ustun turish yoki ularni boshqarish vositasi sifatida emas, balki jamoani umumiy maqsad sari birlashtirish, hamkorlikni yo'lga qo'yish va umumiy manfaatga xizmat qilish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi.

Nazariy tahlil asosida ijtimoiy faollik va liderlik kompetensiyalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni quyidagi ketma-

ketlikda ifodalash mumkin: talabaning muayyan ijtimoiy ehtiyoj yoki muammoni anglashi unda tashabbus ko'rsatish motivini yuzaga keltiradi; tashabbus esa muloqot, hamkorlik va qaror qabul qilishni talab etadi; mazkur jarayon davomida talaba mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi va amaliy faoliyatga kirishadi; faoliyat natijasini baholash esa unda refleksiya va keyingi ijtimoiy tashabbuslar uchun tajriba shakllanishiga olib keladi. Shu tariqa liderlik kompetensiyalari ijtimoiy faollikning yuzaga kelishi va barqarorlashuvini ta'minlovchi ichki mexanizm vazifasini bajaradi.

Muhokama natijalari talabalarda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida faqat nazariy bilim berishning o'zi yetarli emasligini ko'rsatadi. Talabalar mustaqil qaror qabul qilishi, jamoada turli rollarni bajarishi, muammoli vaziyatlarni hal qilishi va o'z tashabbuslarini amalda ro'yobga chiqarishi mumkin bo'lgan pedagogik sharoitlarni yaratish zarur. Shu sababli guruh loyihalari, munozaralar, keys-topshiriqlar, talabalar tashabbuslari, volontyorlik faoliyati, debatlar, talabalarining o'zini o'zi boshqarish organlari hamda ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish liderlik sifatlarini amaliy faoliyat davomida rivojlantirish uchun samarali imkoniyat yaratadi.

Qiyosiy tahlil natijasida yana bir muhim jihat aniqlandi: liderlik kompetensiyalarining alohida elementlarini bir-biridan ajratilgan holda rivojlantirish kutilgan natijani to'liq ta'minlamaydi. Masalan, kommunikativ qobiliyatning yuqori darajada shakllanganligi, agar talabaning mas'uliyatlilik yoki qaror qabul qilish ko'nikmasi yetarli bo'lmasa, uning ijtimoiy tashabbuslarini barqaror faoliyatga aylantirish uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Shu bois liderlik kompetensiyalarini tashabbuskorlik, kommunikativlik, hamkorlik, mas'uliyatlilik, muammoni hal qilish va refleksivlik kabi o'zaro bog'liq komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Olib borilgan nazariy va qiyosiy tahlil natijalarini umumlashtirish asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, liderlik kompetensiyalari talabalarining ijtimoiy faolligini oshirishda uchta asosiy vazifani bajaradi. Birinchidan, ular talabada faol ijtimoiy pozitsiya va tashabbuskorlikni shakllantiradi. Ikkinchidan, talabaning jamoaviy faoliyatga samarali qo'shilishi, boshqalar bilan hamkorlik qilishi va umumiy maqsad sari harakatlanishiga imkon yaratadi. Uchinchidan, o'z qarorlari va faoliyati natijalari uchun javobgarlikni his etishiga yordam beradi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish jarayonida liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishni alohida pedagogik vazifa sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy va kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi uzviy jarayon sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi. Oliy ta'lim muassasasida talabalarga tashabbus ko'rsatish, mustaqil qaror qabul qilish, jamoaviy loyihalarni boshqarish va ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatda ishtirok etish imkoniyatlarining kengaytirilishi ularning liderlik kompetensiyalari bilan bir qatorda ijtimoiy faolligining ham rivojlanishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Olib borilgan nazariy va qiyosiy tahlillar talabalarining ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik kompetensiyalari muhim pedagogik ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Liderlik kompetensiyalari talabaning tashabbuskorlik ko'rsatishi, jamoada samarali faoliyat yuritishi, o'z fikrini erkin va asosli ifodalashi, mustaqil qaror qabul qilishi hamda o'z faoliyati natijalari uchun mas'uliyatni his etishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarining ijtimoiy faolligi faqat ularning turli tadbir va jamoat ishlaridagi ishtiroki bilan emas, balki ijtimoiy muammolarga munosabati, yangi tashabbuslarni ilgari surishi, hamkorlikka tayyorligi va faol fuqarolik pozitsiyasini namoyon eta olishi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish talabaning ijtimoiy faolligini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Talabalarda tashabbuskorlik, kommunikativlik, jamoada ishlash, mas'uliyatlilik, muammoli vaziyatlarda maqbul yechim topish va refleksiv baholash kabi liderlik sifatlarini kompleks ravishda rivojlantirish zarur. Buning uchun oliy ta'lim jarayonida guruh loyihalari, debatlar, keys-topshiriqlar, volontyorlik faoliyati, talabalar o'zini o'zi boshqarish tizimi hamda ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalardan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda, liderlik kompetensiyalarining rivojlanganligi talabaning ijtimoiy hayotdagi faol pozitsiyasini mustahkamlaydi, uning jamoa bilan hamkorlik qilish salohiyatini oshiradi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini kuchaytiradi. Shu sababli oliy ta'lim muassasalarida liderlik kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik sharoitlarni yaratish talabalarining ijtimoiy faolligini oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralishi lozim.

TAVSIYALAR

Tadqiqot natijalariga asoslanib, talabalarining ijtimoiy faolligini oshirish va liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Oliy ta'lim jarayonida liderlikka yo'naltirilgan maxsus dasturlarni joriy etish. Talabalar uchun "Yosh liderlar maktabi", "Talaba yetakchilari klubi" kabi dasturlarni tashkil etish ularning boshqaruv va tashabbuskorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Interfaol ta'lim metodlarini keng qo'llash. Debatlar, keys-stadi, rolli o'yinlar va loyiha asosida o'qitish usullari talabalarda mustaqil fikrlash va jamoada ishlash qobiliyatini shakllantiradi.

3. Talabalarini ijtimoiy loyihalarga jalb etish. Volontyorlik, ekologik aksiyalar, ijtimoiy tashabbuslar va yoshlar forumlarida ishtirok etish talabalarining ijtimoiy faolligini sezilarli darajada oshiradi.

4. Tyutorlik tizimini kuchaytirish. Har bir talabaning individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash va unga yo'naltirilgan pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish zarur.

5. Guruhli va jamoaviy faoliyatni kengaytirish. Talabalarni kichik jamoalarda ishlashga o'rgatish orqali ularning liderlik, muloqot va mas'uliyat ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

6. Raqamli platformalardan samarali foydalanish. Onlayn loyihalar, virtual jamoalar va raqamli ta'lim muhitida ishlash talabalarda zamonaviy liderlik kompetensiyalarini shakllantiradi.

7. Motivatsion muhit yaratish. Oliy ta'lim muassasalarida faol va tashabbuskor talabalarni rag'batlantirish

tizimini kuchaytirish ularning ijtimoiy faolligini yanada oshiradi.

Yakuniy xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, talabalarining ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Ushbu yo'nalishda tizimli va maqsadli ishlar olib borilishi kelajakda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan faol, tashabbuskor va lider yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. *Yangi O'zbekiston strategiyasi*. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – 464 b. – ISBN 978-9943-6992-3-6.
URL: <https://library.academy.uz/2022/02/01/mirziyoev-sh-m-yangi-ozbekiston-strategiyasi/>
2. Karimova N. U. Talabalarda ijtimoiy faollikni shakllantirishning psixologik xususiyatlari // *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*. – 2024. – Vol. 2, No. 12. – B. 702–709. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.journal-science-innovative.62308.
<https://inlibrary.uz/index.php/journal-science-innovative/article/view/62738>
- Ganiyeva D. B. Talabalar ijtimoiy faolligini oshirishda tarbiyaviy matnlarning o'rni // *Advances in Science and Education*. – 2026. – Vol. 2, No. 06. – B. 30–34. – DOI: 10.70728/edu.v02.i06.008.
<https://science-education.uz/index.php/journal/article/view/400>
- Xamrakulov J. Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati // *Green Economy and Development*. – 2025. – Vol. 3, No. 6. <https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/6262>
- Maxwell J. C. *Developing the Leader Within You 2.0: Essential Wisdom for Today's Generation of Leaders*. – Nashville, Tennessee: HarperCollins Leadership, 2018. – 256 p. URL: <https://www.harpercollinsfocus.com/9780718074005/developing-the-leader-within-you-2-0/>
3. Goleman D. *The Emotionally Intelligent Leader*. – Boston, Massachusetts: Harvard Business Review Press, 2019. – 224 p. URL: <https://store.hbr.org/product/the-emotionally-intelligent-leader/10263>
4. O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-5013007>
5. Nuraliyeva K. I., Abdusalomova G. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda liderlik qobiliyatining o'rni // *Modern Education and Development*. – 2025. – Vol. 24, No. 1. – B. 109–113. – DOI: 10.71337/inlibrary.uz.mead.118297.
<https://inlibrary.uz/index.php/mead/article/view/118808>